

BO'LAJAK INGLIZ TILI O'QITUVCHILARINING LEKSIK-GRAMMATIK KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISH: NAZARIY ASOSLAR VA METODOLOGIK YONDASHUVLAR

Nasriddinova M.Sh

*TMC instituti o'qituvchisi, "Tillar, aniq va ijtimoiy fanlar" kafedrası.
Nizomiy nomidagi O'zbekiston Milliy pedagogika universiteti tayanch
doktoranti*

ANNOTATSIYA. Ushbu maqolada bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarining leksik-grammatik kompetensiyalarini rivojlantirishning nazariy asoslari tadqiq etilgan. Maqolada "kompetensiya" tushunchasining ilmiy muomalaga kiritilishi, leksik va grammatik kompetensiyalarning o'zaro bog'liqligi tadqiqotlar asosida asoslab berilgan. O'zbekiston Respublikasida ingliz tili o'qituvchilarini tayyorlash tizimi, o'quv rejalari va fanlar bloki tahlil qilinib, leksik-grammatik kompetensiyani shakllantirishda mavjud muammolar aniqlangan. Shuningdek, grammatika-tarjima metodi, to'g'ri metod, audiolingual metod, kommunikativ yondashuv, vazifaga yo'naltirilgan ta'lim, leksik yondashuv, kognitiv yondashuv va kontekstli o'qitish kabi metodlarning qiyosiy tahlili keltirilgan.

Kalit so'zlar: leksik-grammatik kompetensiya, kommunikativ kompetensiya, leksik yondashuv, til o'qitish metodikasi, CEFR, kollokatsiyalar, korpus lingvistikasi, vazifaga yo'naltirilgan ta'lim, kognitiv yondashuv.

Zamonaviy lingvodidaktikada "kompetensiya" tushunchasi markaziy o'rinni egallaydi. Bu tushunchaning ilmiy muomalaga kiritilishi amerikalik tilshunos N.Chomsky nomi bilan bog'liq bo'lib, u 1965-yilda "til kompetensiyasi" (linguistic competence) va "til performansi" (linguistic performance) tushunchalarini farqladi. N.Chomsky nazariyasiga ko'ra, til kompetensiyasi – bu so'zlovchining til tizimi haqidagi ichki, intuitiv bilimi bo'lib, u grammatik jihatdan to'g'ri jumlarlar hosil qilish va ularni tushunish qobiliyatini ta'minlaydi.

1970-yillarda D.Hymes N.Chomsky nazariyasini tanqid qilib, "kommunikativ kompetensiya" tushunchasini ilgari surdi. D.Hymes fikricha, muvaffaqiyatli muloqot uchun faqat grammatik to'g'rilik yetarli emas, balki til vositalaridan ijtimoiy vaziyatga mos ravishda foydalanish ham zarur. Shu tariqa kommunikativ kompetensiya grammatik, sotsiolingvistik, diskursiv va strategik komponentlarni birlashtiruvchi murakkab tuzilma sifatida talqin etila boshlandi.

M.Canale va M.Swain (1980) kommunikativ kompetensiyaning to'rt komponentli modelini taklif etdilar: grammatik kompetensiya (leksika, morfologiya, sintaksis, fonologiya, orfografiya qoidalari), sotsiolingvistik kompetensiya (ijtimoiy kontekstga

mos til vositalarini tanlash), diskursiv kompetensiya (yaxlit matn yaratish) va strategik kompetensiya (muloqotdagi muammolarni bartaraf etish strategiyalari).

Yevropaning til kompetensiyalari bo'yicha umumiy mezonlari (CEFR, 2001, 2018) kommunikativ til kompetensiyasini uch asosiy komponentga ajratadi: lingvistik kompetensiya, sotsiolingvistik kompetensiya va pragmatik kompetensiya. Lingvistik kompetensiya o'z ichiga leksik, grammatik, semantik, fonologik va orfografik kompetensiyalarni oladi. CEFR leksik va grammatik kompetensiyalarni alohida-alohida ta'riflasa-da, amaliy nutq faoliyatida ular bir-biri bilan chambarchas bog'liq.

Leksik kompetensiya – bu so'z boyligini bilish va undan foydalanish qobiliyati. U ikki asosiy jihatni o'z ichiga oladi: leksik elementlar (idiomalar, frazeologizmlar, barqaror birikmalar, individual leksik birliklar) va grammatik elementlar (artikllar, miqdor so'zlari, ko'rsatish olmoshlari, shaxsiy olmoshlar, so'roq so'zlari, bog'lovchilar, yuklamalar). P.Nation (2001) ta'kidlaganidek, so'zni bilish deganda uning shakli (talaffuz, imlo, so'z yasalishi), ma'nosi (denotativ ma'no, konnotatsiya, assotsiatsiyalar) va qo'llanilishi (grammatik funksiyalar, kollokatsiyalar, cheklovlar) tushuniladi.

Grammatik kompetensiya – bu grammatik resurslarni bilish va ulardan foydalanish qobiliyati. U morfologiya (so'z yasalishi, so'z o'zgarishi) va sintaksis (so'z birikmasi va gap tuzilishi) masalalarini qamrab oladi. CEFR grammatik kompetensiyani til birliklarining ma'noli so'z va gap tuzilmalarini hosil qilish va ularni tushinish qobiliyati sifatida ta'riflaydi.

Zamonaviy lingvodidaktikada leksika va grammatikaning o'zaro bog'liqligi tobora ko'proq e'tirof etilmoqda. An'anaviy yondashuvda grammatika va leksika alohida sohalar sifatida o'qitilgan. Biroq, M.Lewis (1993) tomonidan ilgari surilgan "Leksik yondashuv" (Lexical Approach) nazariyasi bu qarashlarni tubdan o'zgartirdi. M.Lewis ta'kidlaganidek, "til grammatikalashgan leksika emas, balki leksikalashgan grammatikadir". Bu shuni anglatadiki, grammatik tuzilmalar ma'lum leksik birliklarga bog'langan holda namoyon bo'ladi va aksincha, leksik birliklar ma'lum grammatik shakllarda qo'llaniladi.

Korpus lingvistikasi ma'lumotlari ham leksika-grammatika integratsiyasini tasdiqlaydi. J.Sinclair (1991) tadqiqotlari shuni ko'rsatdiki, til birliklarining aksariyati idiomatik tamoyil asosida tanlanadi, ya'ni so'zlovchilar individual so'zlarni erkin birlashtirmaydi, balki tayyor leksik-grammatik birliklar (chunks, collocations, patterns) dan foydalanadi. Masalan, "make a decision" birikmasi "do a decision" emas, "strong tea" esa "powerful tea" emas.

Bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarini tayyorlash tizimida leksik-grammatik kompetensiyaning o'rni

Bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarini tayyorlash – bu murakkab, ko'p qirrali jarayon bo'lib, u kasbiy kompetensiyaning turli komponentlarini shakllantirishga yo'naltirilgan. Zamonaviy ta'lim paradigmasi doirasida o'qituvchi kasbiy



kompetensiyasi tilni bilish, pedagogik mahorat, psixologik tayyorgarlik va metodik bilimlarni birlashtirgan holda namoyon bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasida ingliz tili o'qituvchilarini tayyorlash oliy ta'limning bakalavriat ("Xorijiy til va adabiyoti" ta'lim yo'nalishi, 60111800) va magistratura ("Xorijiy til va adabiyoti" mutaxassisligi) bosqichlarida amalga oshiriladi. Davlat ta'lim standartlari va o'quv rejalari muvofiq, bakalavriat bosqichida ingliz tili o'qituvchilarini tayyorlash quyidagi asosiy fanlar bloklarini o'z ichiga oladi:

- amaliy ingliz tili kursi (Practical English, Integrated skills);
- nazariy tilshunoslik fanlari (fonetika, leksikologiya
- nazariy grammatika, stilistika);
- tilni o'qitish metodikasi;
- adabiyotshunoslik fanlari;
- tarjima nazariyasi va amaliyoti;
- mamlakatshunoslik fanlari.

Leksik-grammatik kompetensiya bevosita "Amaliy ingliz tili kursi", "Amaliy grammatika", "Leksikologiya" va "Nazariy grammatika" fanlari doirasida shakllantiriladi. Biroq, boshqa fanlar ham leksik-grammatik kompetensiyani mustahkamlash va rivojlantirishga o'z hissasini qo'shadi. Masalan, adabiyotshunoslik fanlarida talabalar autentik badiiy matnlar bilan ishlash orqali leksik-grammatik ko'nikmalarini rivojlantiradi, tarjima fanlarida esa leksik-grammatik birliklarning tillararo o'xshashlik va farqlarini anglash ko'nikmalari shakllantiriladi.

Oliy o'quv yurtlari o'quv rejasida "Amaliy grammatika" fani odatda 1-4-semestrlar davomida o'qitiladi va quyidagi mavzularni qamrab oladi: gap tuzilishi va gap turlari, fe'l zamonlari tizimi, modal fe'llar, majhul nisbat, shartli gaplar, to'ldiruvchi ergash gaplar, aniqlovchi ergash gaplar, noaniq fe'l shakllari (infinitiv, gerundiy, sifat-dosh), moslashuv va mos kelmaslik, artikl qo'llanilishi, olmoshlar, sifat va ravish darajalari, predloglar va boshqalar.

"Leksikologiya" fani esa 5-6-semestrlar davomida o'qitilib, so'z tuzilishi, so'z yasash usullari, so'zning semantik tuzilmasi, sinonimiya, antonimiya, polisemiya, frazeologiya, leksik qatlamlar va uslubiy tabaqalanish kabi masalalarni o'z ichiga oladi.

Mavjud o'quv jarayonini tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, leksik va grammatik materiallar ko'pincha alohida-alohida o'qitiladi. Amaliy grammatika darslarida grammatik strukturalarga e'tibor qaratiladi, leksik mashg'ulotlarda esa so'z boyligi kengaytiriladi. Bunday yondashuv leksika va grammatikaning o'zaro bog'liqligini yetarlicha hisobga olmaydi va natijada talabalar grammatik to'g'ri, lekin leksik jihatdan tabiiy bo'lmagan nutq shakllantirishi mumkin.

Leksik-grammatik kompetensiyani rivojlantirishga yondashuvlar tahlili

Chet tillarni o'qitish metodikasi tarixida leksik va grammatik materialni o'qitishga turli yondashuvlar qo'llanilgan. Har bir yondashuv o'z davri talabalariga javob berib,



ma'lum afzalliklarga ega bo'lgan. Zamonaviy metodikada esa ushbu yondashuvlarning ijobiy tomonlari sintezlanib, yanada takomillashtirilgan metodikalar ishlab chiqilmoqda.

Grammatika-tarjima metodi (Grammar-Translation Method) – chet tillarni o'qitishning eng qadimiy metodlaridan biri. U grammatik qoidalarni eksplitsit o'qitish, ona tilidan chet tiliga va aksincha tarjima qilish, yozma matnlar bilan ishlashga asoslanadi. Ushbu metodning afzalligi shundaki, u grammatik tuzilmalarni tizimli o'rganish, til strukturasini chuqur anglash imkoniyatini beradi. Biroq, uning kamchiligi – og'zaki nutq ko'nikmalarining shakllanmasligi, kommunikativ yo'nalishning yo'qligi.

To'g'ri metod (Direct Method) – ona tiliga murojaat qilmasdan, bevosita chet tilida o'qitish. Grammatika induktiv usulda, misollar orqali o'zlashtiriladi. Leksika real predmetlar, rasmlar, harakatlar orqali tushuntiriladi. Ushbu metodning kuchli tomoni – og'zaki nutqni rivojlantirish, til muhitini yaratish. Kamchiligi – murakkab grammatik tushunchalarni tushuntirish qiyinligi.

Audiolingual metod (Audiolingual Method) – bihevizizm nazariyasiga asoslangan bo'lib, til ko'nikmalarini takrorlash va mustahkamlash (drilling) orqali shakllantiradi. Grammatik strukturalar pattern drill mashqlari orqali avtomatlashtirilib, leksika esa dialog va matnlar kontekstida o'rganiladi. Afzalligi – til ko'nikmalarini avtomatlashtirish. Kamchiligi – ijodiy nutq faoliyatining chegaralanganligi, kommunikativ ahamiyatning kamayishi.

Kommunikativ yondashuv (Communicative Language Teaching – CLT) – 1970-yillardan boshlab chet tillarni o'qitish metodikasida yetakchi o'rin egalladi. Ushbu yondashuvning asosiy maqsadi – kommunikativ kompetensiyani shakllantirish. Grammatika va leksika muloqot vositasi sifatida qaralib, ular kommunikativ vazifalar doirasida o'rganiladi. CLT ning afzalliklari: real muloqotga yo'naltirilganlik, talabalarning faol ishtirokini ta'minlash, autentik materiallardan foydalanish. Kamchiliklari: grammatik aniqlikning e'tibordan chetda qolishi, ba'zan tizimli bilimning yetishmovchiligi.

Vazifaga yo'naltirilgan ta'lim (Task-Based Language Teaching – TBLT) – kommunikativ yondashuvning rivojlangan shakli. TBLT da o'quv jarayoni til haqida o'rganishdan ko'ra, til orqali vazifalarni bajarishga qaratilgan. Grammatik va leksik materiallar vazifani bajarish jarayonida tabiiy ravishda o'zlashtiriladi. D.Nunan, J.Willis, R.Ellis ishlarida TBLT ning nazariy asoslari va amaliy jihatlari chuqur ishlab chiqilgan.

Leksik yondashuv (Lexical Approach) – M.Lewis tomonidan 1990-yillarda ishlab chiqilgan. Ushbu yondashuvga ko'ra, til asosan tayyor leksik birliklar (chunks) dan tashkil topadi: kollokatsiyalar (make a decision), qolip iboralar (I'd like to...), idiomalar (break the ice). Leksik yondashuv grammatikani leksikadan ajratmaydi, balki leksik-grammatik birliklarni yaxlit o'rganishni taklif qiladi.

Kognitiv yondashuv – til o'rganishni kognitiv jarayon sifatida tushunadi. U til strukturalarining kontseptualizatsiyasi, sxemalar shakllanishi, metafora va metonimiya kabi kognitiv mexanizmlarga e'tibor qaratadi. Kognitiv grammatika (R.Langacker, G.Lakoff) til birliklarining ma'nosi va shaklini birga o'rganish zarurligini ta'kidlaydi.

Kontekstli o'qitish – leksik-grammatik materialning muayyan kontekst, vaziyat yoki mavzu doirasida o'rganilishi. Kontekst leksik-grammatik birliklarning ma'nosini aniqlashtirishga, ularni eslab qolish va qo'llashga yordam beradi. Kontekstli o'qitish mazmunli ta'lim (Content-Based Instruction) va integrativ til o'qitish (Content and Language Integrated Learning – CLIL) metodikalarida keng qo'llaniladi.

Yuqoridagi yondashuvlarning qiyosiy tahlili shuni ko'rsatadiki, zamonaviy metodikada ularning har biridan ijobiy jihatlarni olish va birlashtirish maqsadga muvofiq:

- grammatika-tarjima metodidan: grammatik tuzilmalarning tizimli tahlili, kontrastiv yondashuv;
- kommunikativ yondashuvdan: muloqotga yo'naltirilganlik, autentik materiallar, kommunikativ vazifalar;
- vazifaga yo'naltirilgan ta'limdan: amaliy vazifalar orqali o'rganish, jarayon va natijaning birligi;
- leksik yondashuvdan: leksik-grammatik birliklarning integrativ o'rganilishi, kollokatsiyalar va chunks larga e'tibor;
- kognitiv yondashuvdan: til birliklarining kontseptualizatsiyasi, ma'no va shaklning birligi;
- kontekstli o'qitishdan: mazmunli kontekstda o'rganish, tilning real qo'llanilishi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Canale, M., & Swain, M. (1980). Theoretical bases of communicative approaches to second language teaching and testing. *Applied Linguistics*, 1(1), 1-47.
2. Chomsky, N. (1965). *Aspects of the Theory of Syntax*. MIT Press.
3. Council of Europe. (2001). *Common European Framework of Reference for Languages: Learning, Teaching, Assessment*. Cambridge University Press.
4. Council of Europe. (2018). *Common European Framework of Reference for Languages: Learning, Teaching, Assessment. Companion Volume with New Descriptors*. Council of Europe Publishing.
5. Ellis, R. (2003). *Task-based Language Learning and Teaching*. Oxford University Press.
6. Hymes, D. (1972). On communicative competence. In J. Pride & J. Holmes (Eds.), *Sociolinguistics* (pp. 269-293). Penguin Books.
7. Lakoff, G., & Johnson, M. (1980). *Metaphors We Live By*. University of Chicago Press.



8. Langacker, R. W. (2008). Cognitive Grammar: A Basic Introduction. Oxford University Press.
9. Lewis, M. (1993). The Lexical Approach: The State of ELT and a Way Forward. Language Teaching Publications.
10. Nation, I. S. P. (2001). Learning Vocabulary in Another Language. Cambridge University Press.
11. Nunan, D. (2004). Task-Based Language Teaching. Cambridge University Press.
12. Richards, J. C., & Rodgers, T. S. (2014). Approaches and Methods in Language Teaching (3rd ed.). Cambridge University Press.
13. Sinclair, J. (1991). Corpus, Concordance, Collocation. Oxford University Press.
14. Willis, J. (1996). A Framework for Task-Based Learning. Longman.